

JIZZAXLIK QATAG'ON QURBONLARI

Aralov Jahongir Ne'matulla o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qatag'on siyosatining qonli to'fonini boshidan o'tkazgan jizzaxlik rahbar xodimlar va ziyorolar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada jizzaxlik qatag'on qurbanlarining ayrimlari faoliyatining qisqacha tarixi va taqdiri yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: qatag'onlik siyosati, "Uchlik", Haydarbek Abdujabborov, yozuvchi Anqaboy Xudoybaxtov, Sibir, aka-uka Hamdamovlar, xalq dushmani, 31-avgust, shahidlar xotirasi

Sobiq Sovet Ittifoqi yillarida turli siyosiy, ijtimoiy, g'oyaviy, diniy sabablarga ko'ra millionlab odamlar qatag'onga duchor bo'ldi. Qatag'on siyosatining qurbanlari haqida haligacha aniq ma'lumotlar mavjud emas. Saqlanib qolgan mavjud faktlar shuni ko'rsatadiki, 1921–1953-yillar orasida 4 milliondan ortiq odam qatag'on qurbaniga aylangan. Ulardan 800 ming kishi o'lim jazosiga hukm etilgan.

Sovet Ittifoqida qatag'onlar to'lqini uch davrga to'g'ri keladi:

- birinchi bosqich 1920-yillarni,
- ikkinchi bosqich 1937–1938-yillarni,
- uchinchi bosqich 1950–1953-yillarni o'z ichiga oladi[4].

Bundan tashqari, urush davrida va undan keyin urush qatnashchilari ham qatag'onga uchrab turli muddatlarga ozodlik mahrum etiladi.

Butun sobiq SSSRda amalga oshirilgan siyosiy qatag'onlar O'zbekistonni ham chetlab o'tmadni. O'zbekistonda siyosiy qatag'on asosan respublikaning siyosiy arboblari va ziyorolar qatlagini qamrab oldi. Sovetlar tuzumi birinchi kundan boshlab xalqimiz boshiga son-sanoqsiz qirg'inlar, dahshatli va alamlı kulfatlar olib keldi. Bu dahshatli

rejimni o'lkamiz xalqlari qabul qilmadi. Ular istiqlol uchun, erk va milliy-ozodlik uchun yillar mobaynida qurolli kurash olib bordi. Bu kurash davomida ayrim xorijdag'i tarixchilar hisobicha 1 mln. 900 ming vatandoshimiz Turkistondan bosh olib, xorijiy mamlakatlarga chiqib ketdi va 1 mln. 700 ming yurtdoshimiz Sibirga, uzoq shimolga, Ukrainaga, Shimoliy Kavkazga, Uralga, Qozog'istoniga, uzoq sharqqa, Kavkazga, Volgabo'yin rayonlariga badarg'a qilindi[1.116-120 b.].

XX asrning 30-40-yillardagi shaxsga sig'inish va qatag'onlarning qonli to'poni Jizzax viloyatini ham qamrab oldi. Qatag'on yillari viloyatning ko'zga ko'ringan rahbar xodimlaridan Haydarbek Abdujabborov, Orif Olimjonov, Bayza Mirazimov, Tursunxo'ja Valixo'jayev, Rizoqul Yo'ldoshev, Haydarqul Yo'ldoshev, Mulla Isoq Haydarov, Mamadali Haydarov, Ismoil Muhammedov, Urdushbek Salimov, Abdulla Botirbekov, yozuvchi Anqaboy Xudoybaxtov, Muhiddin Xo'jayev, Mahmud G'ozixonov, Turob Nazarov, aka-uka Anvar, Hasan, Abdulla Hamdamovlar kabi yana o'nlab gunohsiz rahbar va ziyoli xodimlar qamoqqa olinib uzoq yillarga qamoq yoki otuvga hukm qilindi[2.135-136.b., 3.211-218 b.] .

Aslini olganda, bu siyosiy qotillik harakati O'zbekiston Respublikasi (o'sha paytda O'z SSR) ni iqtidorli rahbar xodimlari va ziyorolaridan mahrum qilish, shafqatsiz jazo choralar yordamida butun xalqni qo'rquv iskanjasida saqlashga qaratilgan "ayyorona" siyosat edi.

Ushbu maqolada jizzaxlik qatag'on siyosatiga duchor bo'lgan ayrim shaxslarning faoliyatiga to'xtalib o'tiladi.

Dastlab fikr yuritmoqchi bo'lgan insonimiz O'zbekiston, Tojikiston respublikalarida Sog'liqni saqlash, Moliya vaziri, Tojikiston respublikasining Moskvadagi muxtor elchisi kabi bir qator ma'suliyatli lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan Haydarbek Abdujabborovdir. H. Abdujabborov 1936-yil noyabr oyida mehnat ta'tili olib, qishlog'i Yetimtoqqa keladi. U bu yerda ko'plab qavm-qarindosh, qo'ni-qo'shni, qishloqdoshlari bilan o'z esdaliklari bilan o'rtoqlashadi, fikr almashadi.

Jizzaxdan Toshkentga qaytgan H. Abdujabborovga F. Xo'jayev, A.Ikromovlarning dumi, "xalq dushmani" tamg'asi bosilib, 10 yil muddatga qamoqqa hukm qilinadi.

1938-yilda H. Abdujabborov bilan bir piyola ustida "o'zbegona" suhbat qurgan 10 dan ortiq qishloqdoshlari "Uchlik" qarori bilan otuvga, 40 yaqin begunoh kishilar esa 8-10 yil qamoq jazosiga hukm qilindilar [2. 138-139 b.].

Demak, ushbu ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, biror lavozim kursisida o'tirgan mahalliy rahbar xodimlar va ular bilan birga faoliyat olib borgan insonlar ham har doim qandaydir tahlikada yashashga majbur bo'lganlar.

Anvar Hamdamov – otasidan erta yetim qolgan bo'lishiga qaramasdan, mehnatkashligi tufayli 1917-yildan Samarqand viloyat Ichki ishlar bo'limida faoliyat olib borgan. 1929-1930-yillarda Jizzax shahridagi qurilish, 1936-yili Toshkent shahar obodonlashtirish tashkilotlarida rahbarlik qilgan. A. Hamdamov ham "Uchlik"ning qaroriga binoan "millatchilik targ'ibotchisi" degan uydirma bilan 10 yil muddat qamoqqa hukm etilib, Sibirga surgun qilingan.

A. Hamdamov Qarag'anda shahrining Dolina qishlog'idagi qurilish ishlarida sohasida ishlaydi va shu yerda kasallanib vafot etadi [2.136-137 b.].

Hasan Hamdamov - hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, u G'allaorol tumani militsiya bo'limida, so'ngra Forish, Jizzax, Zomin va boshqa tumanlarda aholiga oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlov bo'limida ishlagan. Unga "aksilinqilobiy tashkilot a'zosi, xalq dushmani" degan soxta ayblar qo'yilib, otishga hukm qilingan va hukm 1938-yil 7-mart kuni ijro etilgan.

Yana bir qatag'on qurbanligini ta'tib ko'rgan shaxslardan biri Abdulla Hamdamov bo'lib, u aka-uka Hamdamovlar orasida savodlisi edi. Dastlab, faoliyatini o'qituvchilikdan boshlagan A. Hamdamov tashkilotchiligi tufayli keyinchalik, jamoa xo'jaligi raisligiga saylanadi. 1930-yilda jamoa faollarini to'plab, ziyofat bergani uchun "xalq mulkini talon-taroj qildi" deb ayb qo'yilib, qamaladi. Keyinchalik, qamoqdan chiqib, yana o'sha jamoa xo'jaligida rais muovini lavozimida faoliyat ko'rsatadi.

Yuqoridagi holatga o'xshagan voqeа tufayli Abdulla Hamdamov yana hibsga olinib, endi otuvga hukm qilindi [2. 137-138 b.].

Ushbu ma'lumotlardan aytish mumkinki, bir oilaning bir qancha vakillari ham qatag'onlikning qonli ta'mini birdek tatib ko'rishga majbur bo'lganlar. Buni biz aka-uka Hamdamovlar oilasi misolida ko'rishimiz ham mumkin ekan.

Mustabid tuzumning basharasini Ismoil Muhamedov taqdir ham yaqqol ochib beradi. Forish tumani univermagi direktori hisoblangan I. Muhammedov 1937-yilning 5-dekabrida aksilinqilobiy targ'ibot-tashviqot yuritishda ayblanib, hibsga olinadi. U "Uchlik" qarori bilan 10 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilinadi. I. Muhammedov uzoq yurtlarda, qamoqda olamdan o'tadi [2. 140 b.].

Shu o'rinda, qatag'onlikning o'ziga xos raqamlariga e'tibor qaratsak, O'zbekistonda 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha 17 ming 700 kishi qamoqqa olingan. Bulardan 3 ming 613 kishi qatl etildi, 7 ming 87 kishi 8-10 yil muddatga qamoqqa tashlandi [3. 211-218 b.]. O'sha yillari aholining barcha qatlamlari qatag'on girdobiga tushgan. Qatag'on, avvalo, ziyolilar, din xizmatchilariga qarshi qaratilgan edi.

Faqat 1937-yil dekabr oyida "uchlik" qarori bilan hukm qilingan 3 ming 644 kishidan 1 ming 664 nafari imom, eshon, mulla va boshqa diniy xizmatchi bo'lgan. 1938-yilning fevralida "Uchlik" yig'ilishlarida 2 ming 491 mahbus ustidan hukm chiqarilgan, shundan 2 ming 86 mahbus otuvga, 398 mahbus 10 yil muddatga, ikki mahbus 8 yil muddatga qamoq jazosiga hukm qilingan. To'rt mahbus tergov vaqtida vafot etgan, bir kishigina ozod etilgan [4].

Eng qiziq tomoni shundaki, qatag'on siyosatining bunday noo'rin qarorlari va ularning ijrosidagi xatoliklar 1962-1989-yillarda qayta ko'rib chiqilib [2. 138.140 b.], ko'plab insonlar qayta oqlandi. Lekin, qatag'onlikning qora dog'ini tatib ko'rgan insonlar uchun bu ishga urinishga kech bo'lgandi.

Xulosa o'mida aytadigan bo'lsak, mustabid tuzumming qatag'on mashinasi uchun o'ziga yoqmagan insonlarni so'rab-surishtirmsandan hibsga olish, uzoq muddatga qamash, otish hamirdan qil sug'urgandek oson edi.

Vatanimiz istiqlolli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta'minlash yo'lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o'rganish hamda targ'ib etish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi va oshirib kelinmoqda.

Jumladan, o'tgan davr mobaynida ushbu yo'nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Yurtimizda 2001 yildan buyon har yili 31 avgust – Qatag'on qurbanlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlab kelinmoqda. «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi barpo etildi. «Shahidlar xotirasi» jamoat fondi, Qatag'on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta'lim muassasalari qoshida uning bo'limlari tashkil etildi. Bunday ishlar, albatta yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Do'smatov. E., Rasulov J. Sovetlarning 1937-1938-yillarda O'zbekistonda o'tkazgan qatag'on siyosati va uning tarixshunosligi // O'zbekistonda Sovet davlatining qatag'on siyosati: kelib chiqishi sabablari va fojiali oqibatlari mavzusidagi ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent. 2012.
2. Haydarov H., Usmonov Q. Jizzax tarixi. Toshkent. 2009.
3. Shamsutdinov R. Qatag'on qurbanlari. Ikkinci kitob. Toshkent. 2007.
4. www.daryo.uz internet sayti